

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT MUSIQALI DRAMA TEATRI**

***Temirova Sarbina-Bonu***

***Mirsoliyeva Durdona***

***O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti***

***Farg'ona mintaqaviy filiali Qo'g'irchoq teatr aktyorligi***

***4-bosqich talabasi***

**Annotatsiya:** Alisher Navoiy nomidagi davlat musiqali drama teatri, ya'ni Namangan teatrining tarixi, tashkil topishi, tarixdagi qo'yilgan asarlar, spektakllar va faxriylar haqida so'z yuritiladigan quyida barchasi haqida so'zlanadi va albatta keljakka ham nazar tashlanadi.

**Kalit so'zlar:** drama, teatr, jamoa, professional, mакtab, davlat, o'zaro, qirralar, spektakl, jarayon, repertuar, yaxlitligi, komediya, munosib, janr, davrda, muvaffaqiyat, ijod, xizmat, katta, mustaqillik, yangi, mavzu, zamonaviy, aks, asarlar, jahon.

Namangan teatri, Alisher Navoiy nomidagi davlat musiqali drama teatri — dastlabki teatrlardan biri. 1931-yil 15-iyunda "Intilish" (A. Sultonov) spektakli bilan ochilgan. Professional teatr jamoasining asosini mahalliy maktab va texnikumlarning o'qituvchilari, havaskorlik drama to'garagi qatnashchilari tashkil etgan. Truppaning badi-iy raxbari va teatr tashkilotchisi Razzoq Hamroyev (N. Roziqiy bilan) bo'lgan. S. Otaxonov, B. Eminov, A. Toshboyev, A. To'raxonov, X. Sharipov, N. Isho-qov, keyinroq M. Azizova, T. Ja'farova, S. Rahmonov, M. Dadaboyev, T. So-diqov va boshqa teatrning dastlabki ijodkorlaridir. 30-yillar teatr uchun sahna san'atini egallash yo'lidagi o'ziga xos maktab yillari bo'ldi. Bu davrda sahnalashtirilgan "Hujum" (V. Yan, Cho'lpon), "Malikai Turandot" (K. Gotssi), "Halima" (G. Zafariy) kabi spektakllar badiiy yo'nalishiga ko'ra ko'proq tashviqot harak-terida edi. 30-yillarning o'rtalarida jamoaning ijodiy faoliyatida ma'lum burilish yasaldi. A. Turdiyev, R. Hamroyevning aktyorlar bilan ijodiy hamkorligi samarali natija berdi va "Gulsara", "Nomus va muhabbat" (K. Yashin), "Rustam" (U. Ismoilov), "Otsiz" (A. Majidiy), "Makr va muhabbat" (F. Shiller), "Boy ila xizmatchi" (Hamza) kabi spektakllar yaratildi. Aktyorlar obraz yaratishda qolip va bir xillikni bartaraf etib, asta-sekin qahramonlar ichki dunyosini ochish san'ati, inson xususiyatlarini tasvirlash mahoratini egallab bordilar.

1936-yil teatr ilk bor Toshkentga gastrolga keladi, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Rustam", "Arshin mol olon" kabi spektakllari poytaxt tomoshabinlari tomonidan ijobiy baholandi.

Ikkinchi jahon urushi yillari teatr ijodiy truppasi "Qurbon Umarov", "Front bo'yab buyruq", "Burgutning parvozi", ukrain teatri aktyorlari bilan hamkorlikda

Gulak-Artyomovskiyning "Zaporojyelik Dunay ortida" nomli hajviy operasini sahnalashtirdilar.

Urushdan keyingi yillar teatr repertuari kengaydi. Ijodiy ko'tarinkilik, repertuar mustaqilligiga erishishga aktyorlik maxrratini o'stirishga intilish sezildi. Ayniksa, 50-yillarning 2-yarmida A. Xachaturov bosh rej. etib tay-inlangach, jamoada uzlusiz ish olib borilib, original repertuar, spektakl sahnalashtirishda ifodaviylikning yangi qirralarini izlash, sahna bezaklarini yangilash ustuvorlik qildi. Aynan shu davrda o'zbek dramaturgiyasi bilan teatrning uzaro bog'lanish jarayoni kuchaydi. "Yurak sirlari" (B. Rahmonov), "Og'riq tishlar" (A. Qahhor), "Chin muhabbat" (O. Yoqubov), "Xurriyat" (Uyg'un), "Tug'ma dog'" (S. Qrriyev) kabi spektakllarda davr muammolari, xalq hayoti va uning mehnatini aniq tasvirlashga intilish asosiy vazifaga aylandi. 1957-yil Toshkentga bulgan gastrolida teatr madaniyatining ancha yuksalganligi, repertuarning janr jihatidan o'sganligi, aktyorlik ansamblining yaxlitligi kuzga tashlandi. Teatr rivojiga o'sha davrda M. Azizova, O. Tojiboyeva, T. Nazarova, M. Ubaydullayev kabilar munosib hissa qo'shdilar.

1963-yil teatr musiqali drama va komediya teatriga aylantirilgach, teatrning o'ziga xos repertuarini shakllantirish harakatlari natijasi o'laroq "Toshbolta oshiq" (H. G'ulom; M. Leviyev), "Nurxon", "Gulsara" (K. Yashin; T. Jalilov). "Alpomish", "Toxir va Zuxra" (S. Abdulla), "Guli siyoh" (S. Jamol), "Hali-ma" (G'. Zafariy, T. Tula), "Layli va Majnun" (Sh. Xurshid) kabi musiqali dramalar teatr repertuaridan urin oldi. Musiqali dramalar bilan bir katorda "O'liklar kechirmaydi" (O'. Umarbekov), "Ufq" (S. Ahmad), "Kasa Mare" (I. Drutse) singari dramatik spektakllar ham qo'yildi. Keyinroq "Yusuf va Zulayho" (H. Sa'dulla; D. Soatkulov), "O'n uchinchi rais" (O. Abdullin), "Yovvoyi farishta" (A. Kolomiys), "Temir xotin" (Sh. Boshbekov) kabi ijtimoiy mavzudagi asarlar muvaffaqiyat bilan sahnalashtirildi. Shu davrda teatrdagi ijod qilgan H. Oxunova, M. Isomiddinovlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Mustaqillikdan keyin teatr faoliyatida yangi davr boshlandi. 90-yillarning o'rtalarida teatrni Karim Yo'ldoshev boshqardi. Mustaqil repertuar tanlash, mavzu va janr diapazo-nining kengayishi ko'zga tashlandi. Bu davrda teatr spektakllari vatan tarixi yoritilgan, zamonaviy mavzu aks etgan asarlar hamda jahon klassikasidan iborat bo'ldi: "Mashrab" (A. Tursun), "Yor istab" (H. Sharipov), "Kashmir qo'shig'i", "Alpomishning o'q-yoyi" (A. Jabbor), "Usmon Nosir qayerda?" (A. A'zamov), "Kirol Lirning nabiralari" (U. Shekspir, A. Pushkin, M. Bulgakov) va boshqa teatrning so'nggi yillardagi eng yaxshi spektakllaridir.

O'zbekiston xalq artistlari M. Ubaydullayev, U. Nuraliyev; O. Tojiboyeva, K. Rasulova, M. Rahmonov, V. Saydaliyev kabi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar, shuningdek, S. Sarimsoqova, S. Omonov, M. Niyoziy, M. Faxriddinova, X. Madrahimova, U. Mirzayev, A. Tojiboyev, A. Karimova, M. Abdullayeva va boshqa aktyorlar teatrning hozirgi kundagi yetakchi ijodkorlaridir.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Sahna ma'naviyati (SH. Rizayev)
2. Sahna nutqi (U. Boltaboyeva)
3. Qo'g'irchoq teatr tarixi (M. Qodirov, S. Qodirova)
4. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari (D.D.Abdullayev, L.D.Usmanova)

**Foydalilanigan web-saytlar:**

1. Tafakkur.net sayti
2. Ziyouz.com sayti
3. Qomus.info sayti
4. Saviya.uz sayti
5. Shosh.uz sayti
6. Vikipediya
7. Yoair.com sayti